

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.Xakimov, B.A.Nabiyev

Hozirgi zamon ekologik masalalari va Markaziy Osiyoda transchegaraviy suvdan foydalanish muammosi 217

X.Raxmatova

Abu Said Abulxayrning "Risolai havroiyya" asari Xoja Ahror Valiy falsafiy talqinida 225

B.Iminov

Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi "Dehqon" jurnalining tarixi 229

O'.Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruviga ma'naviy tarbiyaning ta'siri 233

B.Xasanov

Terrorizm va ekstremizmning jamiyatga tahdidi 236

B.Yalgashev

Samarqand vohasida ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari 240

J.Yusubov

Abu Nasr Forobiy hayoti va ijodining o'ziga xos jihatlari 245

D.Sagdullaeva

Jamiyat modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili 248

A.Tojaliyev

Oliy ta'lim-yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti 254

E.Zoyirov

Ya'qubi Charxiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari 258

U.Azimov

Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili 264

A.Abdumalikov

Jamiyatda uzliksiz ta'lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli 267

I.Rizayev

Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar 272

R.Mardonov

Sharq va g'arb ta'lim falsafalarining o'zaro ta'siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot 279

F.Yuldashev

Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi 283

F.Usmonov

Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari 282

H.Muhamadiyev

Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida 293

SIYOSAT

D.Sharipov

Tinchlikni ta'minlashning innovatsion omillari 298

M.Habibullaev

Korrupsiyadan xoli jamiyat barpo etishda ma'naviy – ma'rifiy islohotlarning dolzarbligi 302

M.G'anyeva

Xotin-qizlarda tadbirkorlik tafakkuri va uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rni 305

O.Boboqulov

Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida O'zbekiston SSR bilan diplomatik munosabatlari 309

J.Sultonov

Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish 311

JAMIYAT MODERNIZATSIYALASHUVINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI
СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА
SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF SOCIETY'S MODERNIZATION

Dilbar Shuxratovna Sagdullaeva¹

¹Dilbar Shuxratovna Sagdullaeva

– Muhammad al - Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot exnologiyalari universiteti, "Gumanitar fanlar" kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada modernizatsiya tushunchasining mohiyati, unga nisbatan shakllangan yondashuvlarni o'rganishni maqsad qildik. Unda jamiyat siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarini modernizatsiyalash jarayonining muhim xususiyatlari ilmiy asoslanib, mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishi sohalarida olib borilayotgan islohotlarining o'ziga xos jihatlari tahlil etildi.

Modernizatsiyaning mohiyati va shakllarini o'rganishda tizimli tahlil, qiyoslash, umumlashtirish, deduksiya kabi metodlardan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili modernizatsiya yangi, zamonaviy, taraqqiy etgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning qaror topishini ifodalovchi keng qamrovli jarayon ekanligini, fanda paradigmal o'zgarishlarning vujudga kelishi bilan tavsiflanishini ko'rsatdi.

Modernizatsiyalash g'arblashtirish, an'anaviylikdan zamonaviylikka o'tishgina bo'lmay, balki, milliy o'zlikning muhim jihatlari saqlagan holda, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy taraqqiyotga erishish, xalq farovonligi, inson huquq-erkinliklari to'la ta'minlangan jamiyatga o'tish demakdir.

Аннотация

В данной статье мы стремились изучить сущность понятия модернизации, сформировавшиеся к ней подходы, в ней были научно обоснованы важные особенности процесса модернизации политической, экономической, социальной и культурной сфер общества, проанализированы специфические аспекты реформ, проводимых на пути становления свободного гражданского общества в Узбекистане.

Для изучения характера и форм модернизации применялись такие методы, как систематический анализ, сравнение, обобщение, дедукция.

Анализ литературы по теме показал, что модернизация представляет собой комплексный процесс, представляющий собой установление новых, современных, передовых социально-экономических отношений, характеризующийся возникновением парадигмальных изменений в науке.

Модернизация означает не только вестернизацию, переход от традиционного к модерну, но и достижение социального, политического, правового, экономического развития при сохранении важных аспектов национального самосознания, переход к обществу с полным обеспечением благосостояния людей, прав человека и свободы.

Abstract

In this article, we aimed to study the essence of the concept of modernization, the approaches formed to it. In it, the important features of the process of modernization of the political, economic, social, and cultural spheres of society were scientifically based, and the specific aspects of the reforms carried out in the way of establishing a free civil society in our country were analyzed.

Methods such as systematic analysis, comparison, generalization, and deduction were used to study the nature and forms of modernization.

The analysis of literature on the topic showed that modernization is a comprehensive process that represents the establishment of new, modern, advanced social and economic relations, characterized by the emergence of paradigmatic changes in science.

Modernization means not only westernization, the transition from traditional to modernity, but also the achievement of social, political, legal, and economic development while preserving the important aspects of national identity, the transition to a society with full provision of people's welfare and human rights and freedoms.

Kalit so'zlar: *an'anaviylik, zamonaviylik, modernizatsiya, jamiyat, iqtisodiy transformasiya, siyosat, huquq, madaniyat, demokratlashtirish, liberallashtirish, fuqarolik jamiyati.*

Ключевые слова: *традиционализм, современность, модернизация, общество, экономическая трансформация, политика, право, культура, демократизация, либерализация, гражданское общество.*

Key words: *traditionalism, modernity, modernization, society, economic transformation, politics, law, culture, democratization, liberalization, civil society.*

KIRISH

Modernizatsiyalash inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarini yangilash, an'anaviylikdan zamonaviylikka o'tish, rivojlanishda yuqoriroq bosqichlarga erishishdan iborat bo'lgan murakkab jarayon bo'lib, ilm-fan sohasida paradigmal yangilanishlar sodir bo'lishi bilan birga kechadi.

Modernizatsiya nazariyasining zamini taraqqiyot g'oyasi bo'lib, uning kelib chiqishi obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan taqozolangan.

Ma'lumki, mamlakatni rivojlantirish, ilg'or munosabatlarga o'tish jamiyat hayotining har bir jabhasida amalga oshiriladigan tub sifat o'zgarishlari orqali sodir bo'ladi. Mamlakatdagi ijtimoiy o'zgarishlar va iqtisodiy o'sish sur'atlariga g'ov bo'luvchi an'anaviy qadriyatlarni yengish, ularni xo'jalik subyektlarining innovatsion faoliyati – yangi texnologiyalarni yaratish, tarqatish, yangi tashkiliy iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yishga undovchi qadriyatlarga almashtirish – modernizatsiya jarayoni orqali kechadi.

Modernizatsiya ijtimoiy voqelikning tizimli o'zgarishi, rivojlanishi, takomillashuviga olib keladigan jarayon bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining barcha sohalariga taalluqlidir. Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, madaniy modernizatsiyaning asosiy omili, eng avvalo, olamning ilmiy manzarasidagi o'zgarishlarning yuzaga kelishi bilan namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Modernizatsiya — (fran. *moderisatio*, *modere* — eng yangi; ingl. *modernization* — yangilanish, zamonaviylashtirish) — industriallashtirish, sanoatlashtirish davrida agrar, tarixiy va zamonaviy jamiyatlar taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishini ifoda etuvchi ijtimoiy jarayon bo'lib, zamonaviy talablarga muvofiq o'zgarish va takomillashtirishni anglatadi. U jamiyat hayotining barcha jabhalari: iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohaning modernizatsiya qilinishini taqozo etadi.

Fransuz olimi E. Dyurkgeym modernizatsiyani mehnatning ijtimoiy taqsimoti amalga oshirishiga olib keluvchi ijtimoiy differentsiallashtirish jarayoni sifatida talqin etadi [1;108]. Nemis sotsiologi M. Veber modernizatsiyani xo'jalik subyektlarining o'z shaxsiy iqtisodiy daromadlarini imkon darajada oshirishga intilishlaridan iborat bo'lgan ratsionallashtirish jarayoni sifatida o'rganadi [2;38-39].

Amerika funksionalizm maktabi vakillari tomonidan 1950-60-yillarda taklif etilgan ijtimoiy taraqqiyot modeliga ko'ra, modernizatsiya jarayonining mazmun-mohiyatini ifodalovchi asosiy omil — ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan an'anaviy qadriyatlar o'rniga zamonaviy yondashuvlarning vujudga kelishidir [3;47].

Modernizatsiya nazariyasi doirasida shakllangan liberal yo'nalish talqiniga muvofiq, modernizatsiya an'anaviylikdan zamonaviylikka o'tishni, ya'ni g'arblashtirishni anglatadi. Liberal modernizatsiya nazariyasi tarafdorlari fikricha, barcha mamlakatlar yagona jadval va namuna asosida rivojlanadi. Modernizatsiyalashayotgan mamlakatlar uchun bozor iqtisodiyoti, yangi axborot texnologiyalari, kommunikatsiya tarmog'i rivojiga asoslangan ijtimoiy mobillik, oqilonalik, plyuralizm, demokratiya hukmron bo'lgan ochiq jamiyatni qaror toptirishga intilish xos ekanligi ta'kidlanadi. Modernizatsiya jarayoni tadqiqiga nisbatan shakllangan liberal yondashuv qator nuqtai-nazarlardan tanqid qilingan. Masalan, radikallar modernizatsiya nazariyasining o'zga sivilizatsiyalar uchun foydasiz bo'lgan g'arb qadriyat va modellari ta'sir doirasini boshqa mamlakatlarga yoyishga qaratilgan yorqin mafkuraviy ustunlik jihati mavjudligiga urg'u bersalar, konservativ yo'nalish vakillari esa modernizatsiya jarayonining siyosiy faollik va institutsionallashtirish, siyosiy barqarorlik va tartibni saqlash borasida rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy va tarixiy xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlanish jarayonining yo'nalishi va xarakteriga muvofiq ichki ziddiyatlar o'sib borishiga imkon berishiga urg'u beradilar (MDH davlatlari tajribasi asosida). Modernizatsiyaning liberal yondashuviga oid keltirilgan ushbu tanqidlar o'rinli ekanligini ijtimoiy voqelik namoyon etmoqda. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatning milliy va hududiy o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borayotgan puxta o'ylangan islohotlarigina yangilanish, taraqqiyotning nisbatan yuqoriroq bosqichlariga erishishda ichki ziddiyatlarning bartaraf etib borilishiga olib keladi. Demak, modernizatsiyalash — markazlashgan holda boshqariluvchi ijtimoiy tartibdan erkin raqobatli tartibga o'tishni ifodalovchi jarayon sifatida stixiyali kechmaydi. Modernizatsiyalashtirish jarayonlarida davlat muhim (Germaniya, Yaponiya) rol o'ynaydi. Xususan, mamlakatimizda jamiyat har bir sohasini liberallashtirish jarayonlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, davlat bozor mexanizmlarining amal qilishiga turli vositalar orqali (chunonchi, raqobat muhitini saqlash, iqtisodiyot subyektlarining erkin faoliyatini ta'minlash, jamiyat uchun kerakli bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va h.k.) ko'maklashmoqda.

Jamiyat modernizatsiyalashuv jarayonida sodir bo'luvchi axloqiy va iqtisodiy o'zgarishlarga tayyor turishi lozim. Shuning uchun ham bu jarayonda siyosiy hokimiyatning strategik choralar ishlab chiqishi, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishi va istiqbolli rejalari muhim ahamiyatga egadir.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Modernizatsiya jarayoni iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy kabi ko'rinishlarda sodir bo'ladi. Iqtisodiy modernizatsiya — qayta ishlab chiqarish jarayonining intensivlashtirilishini nazarda tutib, mehnat taqsimoti darajasining ortishi, ishlab chiqarishda zamonaviy energetik qurilmalardan keng foydalanilishi, fanning ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi hamda ishlab chiqarishni ratsional boshqarishni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy modernizatsiyaning mohiyati ishlab chiqarish usuli va xo'jalik ukladining zamonaviy muvozanatli ochiq turdagi bozor tizimiga qayta o'zgartirilishidan iborat bo'lib, unda xususiy sektorning hukmronligi boshqa sektorlar: davlat, kooperativ, aksionerlik mulkining mavjudligi bilan saqlanadi. U quyidagi yangilanishlarni nazarda tutadi: Inson jismoniy kuchini ishlab chiqarishda, taqsimlashda, transport va kommunikatsiya tizimida foydalaniladigan energiyaning bug', elektr-energiyasi yoki atom energiyasi kabi jonsiz manbalari bilan almashtirish;

- Iqtisodiy faoliyatni faoliyatning boshqa turlaridan ajratish;
- Mehnat qurollarini murakkab texnologiyalar bilan keng almashtirishni jadallashtirish;
- Iqtisodiyotning birlamchi (qazilma boyliklarni qazib olish) sektorining qisqarishi hisobiga ikkilamchi (sanoat va savdo) va uchlamchi (xizmat ko'rsatish) sektorlarining miqdor va sifat munosabatlari jihatidan keskin o'sishi;
- Iqtisodiy faoliyatning ixtisoslashuvini kuchaytirish – ishlab chiqarish, iste'mol qilish, taqsimlash;
- Sanoatlashuvning o'sishi, iqtisodiy ishlab chiqarishning kengayishi uchun kafolatlarni yaratish.

Iqtisodiy modernizatsiya zamonaviy ishlab chiqaruvchi kuchning rivojini emas, balki texnologik tobelikni yengib o'tishni anglatadi. Bunda eng asosiy e'tibor, avvalo, ilg'or ilmiy-texnik g'oyalarni yaratish qobiliyatiga hamda ilmiy-tadqiqot va tajribaviy-konstruktorlik ishlanmalarini amalga oshirish, ular natijalarini eksport qilishga qaratiladi. O'z iqtisodiyotini yanada erkinlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosida raqobatbardoshligini oshirish yo'lidan borayotgan O'zbekistonda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish hamda bu borada ilm-fan imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish texnologik tobelikni yengishning zaruriy omillari hisoblanadi. Xorijiy ekspertlar, xususan, Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisod fanlari doktori A.Tarasevich e'tirofiga ko'ra, O'zbekiston "sobiq ittifoqdagi boshqa ko'plab "birodar"laridan farqli o'laroq, bozor munosabatlariga o'tishning bosqichli yo'lini tanladi, SSSR parchalangandan keyin iqtisodiy salohiyatini nafaqat saqlab qoldi, balki uni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta ta'minlash, xom ashyoni chuqur qayta ishlash, ichki va tashqi bozorda raqobatli mahsulot chiqarishga erishdi"[4].

Globalashuv sharoiti har bir mamlakatning dunyo xo'jaligiga qo'shilishi, hamkorlarning ilmiy-texnik yutuqlaridan foydalana olishini taqozo etadi. Milliy iqtisodiyotni boshqalardan ajratgan holda modernizatsiyalashga intilish muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi, tabiiydir. Modernizatsiya jarayoni "innovatsion texnologiyalarni joriy etish va jahon bozorida talab mavjud bo'lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarish..."[5]da Yevropa va Osiyo qit'asi bozorlari bilan aloqalarning kengayib borishini talab etadi.

Shuning uchun ham, Prezident Sh. Mirziyoyev iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va barqaror o'sishga erishish bo'yicha yangicha yondashuvlar zarurligini ta'kidladi. "Davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o'ta muhim ahamiyatga ega. Buning uchun O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak. Ushbu dastur O'zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga tezroq olib chiqishga imkon yaratishi lozim"[6].

Demak, modernizatsiya muayyan tovar turlarini ishlab chiqarishni o'stirishnigina emas, balki bir axborot texnologiyasidan boshqasiga tez ulanish imkoniyati hamdir. Zamonaviy modernizatsiya shu asosda iqtisodiy faoliyat ko'lamlarining kengayishinagina emas, balki butun dunyoda texnologik va ijtimoiy o'zgarishlar uchun turtki vazifasini bajaruvchi, turli iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi munosabatda teng huquqli holatga erishishni nazarda tutadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash tovar-pul munosabatlarining ustuvorligiga xizmat qiluvchi erkin tadbirkorlik va xususiy mulkchilik kabi institutlarning shakllantirilishi asosida mehnat jarayonini individuallashtirish, ishlab chiqarishda ijodiy faoliyat rolining ortishi va eng avvalo, xususiy mulkchilik, erkin raqobat, bank kabi institutlar taraqqiyotini taqozo etuvchi zamonaviy ijtimoiy iqtisodiy tizimni yaratish demakdir.

Bugungi kunda ijtimoiy ishlab chiqarishning fanga bog'liq ravishda o'sish tamoyili zamonaviy modernizatsiya uchun obyektiv reallikka aylandi. Har qanday davlat o'zining hududiy o'lchovi va tabiiy

FALSIFA

sharoitlaridan qat'i nazar, modernizatsiyalash jarayonlarining muvaffaqiyati uchun texnologik yangiliklarning shaxsiy manbai va ularni tatbiq etish muhiti sifatida muayyan darajada rivojlangan fanga, intellektual salohiyatga tayanadi. Modernizatsiyalashning darajasi esa fan va iqtisodiyotning tuzilishi, holati hamda jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot maqsadlari bilan aniqlanadi. Mamlakatimizda intellektual salohiyatni oshirish, ilm-fan, xususan, tabiatshunoslik fanlarini rivojlantirish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar yagona bir maqsadni ko'zda tutadi. "Ya'ni, O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"[7].

Siyosiy sohada modernizatsiya milliy suveren davlatlarning, davlatchilikning huquqiy tuzilmalari, hokimiyat tarmoqlarining real bo'linishi, siyosiy demokratiyaning qaror topishi va mustahkamlanib borishi bilan ro'y beradi. Davlat boshqaruvini amalga oshirishda mamlakat hayoti uchun muhim qarorlarni qabul qilishda xalq ishtirokini kengaytirish, aholining siyosiy faolligi ortishi, ko'p partiyaviylikning rivoji, ochiq plyuralistik siyosiy tizimlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi siyosiy modernizatsiyaning muhim belgisi hisoblanadi. Demak, modernizatsiya uzoq muddatli, davriy o'zgarishlarni qamrab oluvchi tizimli jarayondir. Siyosiy rollar aniq taqsimlangan yangi kuchli siyosiy tartibotning shakllanishi, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtiruvchi qonun va huquqning kuchayishi, siyosiy huquqlarga ega bo'lgan fuqarolarning ortishi, shaxs va turli ijtimoiy guruhlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga jalb qilinishi o'sib borishi va kengayishi kabilar siyosiy modernizatsiya unsurlari hisoblanadi.

Tarixga nazar tashlasak, siyosiy modernizatsiya jarayonlari G'arbda milliy markazlashgan davlatlar paydo bo'lishi bilan boshlandi. Ushbu jarayonlarning chuqurlashuvi Yevropa va Amerikada markazlashgan davlatlarning qaror topishi, konstitutsion tuzum, davlat boshqaruvi organlari tizimining, siyosiy partiyalar, saylov tizimi, fuqarolik jamiyati va uning institutlarining paydo bo'lishiga hamda takomillashishiga olib keldi. Shuningdek ushbu jarayon markazlashgan burjua davlatlarining mintaqaviy va global ta'sir doirasi ortishiga, dunyo miqyosida mustamlakachilik imperiyalarining vujudga kelishi (XVI asr boshi) hamda dunyoni tobe hudud va ta'sir zonalariga bo'lib olishga qaratilgan faoliyatning yuqori tizimli usuli bo'lgan imperializm rivojiga olib keldi.

Siyosiy modernizatsiya muayyan siyosiy institutlarning shakllantirishini taqozo etib, ular orqali aholining boshqaruv tizimidagi real ishtiroki va xalq ommasining aniq yechimlar ishlab chiqarishga ta'sirini ta'minlash amalga oshiriladi. Siyosiy modernizatsiyaning muhim jihatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Zamonaviy suveren davlatni shakllantirish yo'lida siyosiy tizimning bosqichma-bosqich takomillashtirishi;
- Davlat rolining oshishi;
- Davlat va fuqaroni birlashtiruvchi qonun chiqaruvchi tarmoq ta'sir doirasining kengayishi va ahamiyati ortishi;
- Ijtimoiy guruhlar, fuqarolarning siyosiy hayotga jalb etilishini kengaytirish.

Parlament, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va jamoat birlashmalari kabi institutlarning qaror topishi, rivoji bilan tavsiflanuvchi siyosiy modernizatsiya jarayoni O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. Yangi siyosiy tizimning shakllanish jarayoni siyosiy demokratiya rivojlanishining darajasiga, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining liberallashuvi esa, fuqarolar dunyoqarashida demokratik tamoyillarning qaror topishi, ular siyosiy-huquqiy ongi, madaniyati va faolligiga ko'p jihatdan bog'liq. Ushbu vazifalarning strategik ahamiyati, ijtimoiy-siyosiy hayotda demokratik tamoyillarning qaror topishi, xalqning siyosiy pozitsiyasi shakllanganligida ifodalanadi. Bu esa, o'z navbatida, siyosiy demokratiya mexanizmlari, shakl va uslublarini takomillashtirish, siyosiy partiyalar faoliyatini liberallashtirish, davlat boshqaruvini yangilash, yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishni talab qiladi.

Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyati siyosiy tizimining muayyan tarkibiy qismi bo'lib, parlamentarizmni rivojlantirish va yanada takomillashtirishda muhim rol o'ynaydilar. Siyosiy partiyalarning demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatishi, ularning mustaqil tashkilot sifatida namoyon bo'lishi, mazkur partiyalar faoliyatining moliyaviy jihatdan kafolatlanishi hozirgi davrda parlamentning qonun chiqaruvchi hokimiyat sifatida o'z vazifalarini bajarishga qobil bo'lishi, uning hokimiyatlar bo'linishi tamoyillari asosida huquqiy davlatning yashovchanligini ta'minlashi va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun muhim siyosiy zaruriyatga aylandi. Mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish borasida mamlakatimiz taraqqiyotining avvalgi bosqichlarida "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi"ga binoan saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh Vazir nomzodining Parlament tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi

konstitutsiyaviy tartibning belgilanishi, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi institutining joriy etilishi siyosiy tizimni modernizatsiyalash, jamiyatni demokratlashtirish jarayonlarining takomillashuvi yo'lida o'ziga xos bosqich bo'ldi [8].

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishida ko'zlangan davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish — bu xalqning davlat va jamiyat boshqaruvidagi, ya'ni xalqning erkin xohish-irodasi, qonunchilik faoliyatidan xabardorligi, qonunlar qabul qilinishidagi ishtiroki hamda saylangan organning saylovchilarga bo'ysunishi kabi demokratiyaning muhim tamoyillari amal qilishi umuman olganda, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligi oshishiga olib kelmoqda. "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi" sari tamoyili asosida yetti ustuvor yo'nalishdan iborat bo'lgan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [9] xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Uning yo'nalishlarida ko'zda tutilgan maqsadlar "inson qadri" uchun tamoyiliga asoslangan bo'lib, mamlakatimiz taraqqiyot istiqbolining poydevori hisoblanadi.

Modernizatsiya jarayonlarining tahlili uning quyidagi tarixiy shakllarini farqlash imkonini beradi:

1. Asl modernizatsiya. Rasional ijtimoiy tuzumga uzoq ichki rivojlanish natijasida o'tish amalga oshirilgan AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarini ushbu shaklga kiritish mumkin.

2. Ikkilamchi modernizatsiya – rivojlanishda orqada qolgan hamda ilg'or mamlakatlar orttirgan tajribadan foydalanish hisobiga ularning darajasiga yetib olishga harakat qilayotgan mustamlakachilik qaramligidan ozod etilgan rivojlanayotgan mamlakatlar. Modernizatsiyaning ikkinchi shaklida siyosiy elitaning roli beqiyosdir [10;53-76].

Umuman olganda, ijtimoiy modernizatsiyalashuv — ochiq jamiyat shakllanishini nazarda tutadi. Ushbu jarayon jamiyatning barqaror muvozanatli tabaqalashuvi, ommaviy istemol ko'rsatkichi, hayot sifatining yuqori darajasi hamda davomiyligining o'sishi, fuqarolik jamiyati institutlarining yuzaga kelishi va rivojlanishi orqali namoyon bo'ladi. Fuqarolik jamiyati institutlarining roli tobora ortib boradi. Demokratik davlat boshqaruvidagi tizimli o'zgarishlar esa fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlanishi, ularga boshqaruvning ayrim vakolatlarini uzatish hamda huquqiy maqomini yanada mustahkamlash va takomillashtirish orqali kechadi [11].

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot darajasi uchun zarur bo'lgan daromadlarni aniqlash bo'yicha "iste'mol savatchasi" tushunchasini qonunchilikda mustahkamlash, inson salomatligini muhofaza qilish tizimida "Aqli tibbiyot" va "Yagona tibbiy axborot markazi" konsepsiyalarini tatbiq etish, xususiyy tibbiyotni jadal rivojlantirish uchun xorijiy investorlarni jalb etish kabi vazifalarni bajarish yo'lida sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Ijtimoiy sohaning modernizatsiyalashuvi oxir-oqibat "farovon hayot"ning qaror topishi va mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Madaniy-ma'rifiy hayotda modernizatsiya aholi orasida ilmga bo'lgan ehtiyojning, ta'lim tizimi mavqeyining ortishi, diniy-konfessional bag'rikenglikning o'sishi, fanning gumanitar yo'nalishlarida liberal qadriyatlar, plyuralizmning keng tarqalishi, badiiy ijod, san'atda mustaqil erkin insonning qaror topishi bilan tavsiflanadi.

Yuqori differensiallashgan madaniyatning qaror topishi shaxsiy imkoniyatlarning tabiiy ifodalanishida taraqqiyot, mukammallik, samaradorlikning ortishi hamda individualizm rivoji madaniy modernizatsiyaning namoyon bo'lish usullaridir. Madaniy tizim asosiy unsurlarining differensiallashuvi, savodxonlik va dunyoviy ta'limning o'sishi, fan va texnologiyalarga ishonchning ortishi, yangi ijtimoiy jarayonlarga moslashuvga xizmat qiluvchi shaxsiy qiziqish, odat tavsiflarning shakllanishi, manfaatlar doirasining ortishi bu soha modernizatsiyalashuvining belgilari hisoblanadi. Bularning barchasi G'arbiy Yevropa ijtimoiy voqeligida qaror topdi. G'arbda amalga oshirilgan islohotlar madaniy modernizatsiyaning muhim bosqichlari sifatida Uyg'onish, gumanizm, Ma'rifatparvarlik davrlariga olib keldi. Madaniy modernizatsiya zamonaviy tabiiy fanlar (XYII-asrdan), gumanitar fanlar (XIX-XX asrlar) rivoji bilan bog'liq, XYIII-XX asrlarda madaniy hayotdagi o'zgarishlar an'anaviy qadriyat (oila, axloq, din)larning roli qisqarib borishi, ommaviy madaniyatning yuzaga kelishi, madaniyatlarining differensiallashuviga olib keldi [12].

G'arbgacha xos madaniy hayot modernizatsiyalashuvining ushbu natijalari Sharq xalqlari mentalitetiga muvofiq kelmaydi. Biroq ommaviy madaniyat kabi tahdidlar dunyoning bugungi mafkuraviy holati, shiddatlashuv jarayonlari hamda o'tish davrining o'ziga xos jihatlari ta'sirida yoshlar ongi va

FALSIFA

dunyoqarashiga o'zining axloqiy buzulq va zo'rvonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalari bilan turli manbalar orqali bosim o'tkazishda davom etmoqda.

O'zbekiston jamiyati ma'naviy sohasining yangilanishi xalqimizning asrlar osha saqlanib kelayotgan ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini tiklanishi asosida har bir insonning o'zligini anglashi, ulug' ajdodlarimiz merosini chuqurroq o'zlashtirishida namoyon bo'ladi. Zero, bizning merosimizda insonning ma'naviy, siyosiy va diniy faoliyatlarida bilimning qadri yuqori darajada baholanganligi, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda intellektual-ma'rifiy, diniy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy muhitda dunyoviy bilimlarning qadrlanishi tabiiy-ilmiy fanlarning yuksak darajada rivojlanishi, taqvodorlik, faoliyatlilik, ijtimoiy qadriyatlardan hech qaysisi "bilim"dek e'tiborga ega emasligi o'sha davr ijtimoiy muhitiga xos muhim sifat belgisi hisoblanadi. Demak, bilim va faoliyatning, intellektual va ma'naviy qadriyatlarining o'zaro birligi jamiyat rivojini ta'minlaganligi tarixiy haqiqatdir. Intellektual va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligiga erisha olinishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonining taraqqiyot mohiyatiga ega bo'lishining garovidir. Zero, globallashuv davrida bilim asosiy ishlab chiqaruvchi kuch hisoblanadi. Yosh avlodni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalash bugungi globallashuv davri jarayonlariga ongli yondashuvni, mustaqil fikrlashni, mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan faoliyat yuritishni, o'z Vatani uchun fidoyilik bilan kurasha olishni rivojlantiradi.

XULOSA

Demak, jamiyat barcha sohalarini liberallashtirish va modernizatsiyalash demokratik adolati fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zaruriy omilidir. Bu jarayonlar tadrijiy tasnifga ega bo'lib, har bir mamlakat uchun uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Biroq, ijtimoiy hayotda rivojlanishning yuqoriroq bosqichiga erishish maqsadida amalga oshirilgan sifat o'zgarishlarining natijalari va oqibatlari doimo taraqqiyot mohiyatiga ega bo'lavermasligi mumkin. Dunyo va milliy tarixiy tajribaga asoslangan, davlat va fuqaroning uzviy birlikdagi oqilona faoliyati, xalqning bir tan-u bir jon bo'lib mehnat qilishigina mamlakatimizni yangilash, yuksak taraqqiyot marralariga erishishning asosiy omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qarang: Масионис Дж. Социология. - 9-е изд. -СПб.: Питер, 2004. - 752 с. (See Masionis Dj. Sociology. - 9th izd. - SPb.: Peter, 2004. - 752 p.)
2. Зарубина Н.Н. Социокультурные факторы хозяйственного развития; М.Вебер и современные теории модернизации СПб..1998; (Zarubina N.N. Sotsiokulturnye faktori khozyaystvennogo razvitiya; M. Weber i sovremennye teorii modernizatsii SPb..1998;)
3. Qarang: Штомпка П.Социология социальных изменений. -М.,1995.; (See: Shtompka P. Sociologiya sotsialnykh izmeneniy. -M., 1995.;)
4. Козловски П. Культура постмодерна.-М.,1997; (Kozlovsky P. Kultura postmoderna.-M., 1997;)
4. Tarasevich A.O'zbekistonga qiziqish ortmoqda // "Xalq so'zi", 2018 yil 27 fevral. (Tarasevich A. Interest in Uzbekistan is increasing // "People's word", February 27, 2018.)
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi// "Xalq so'zi", 2009 yil 14 fevral. (Karimov I.A. Consistent continuation of modernization and renewal of our country is the demand of the times// "People's Word", February 14, 2009.)
6. Mirziyoev Sh. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga Murojaatnoma// "Xalq so'zi", 2017 yil 23 dekabr. (Mirziyoev Sh. Address to the members of the Oliy Majlis Senate and the Legislative Chamber// "People's word", December 23, 2017.)
7. Mirziyoev Sh. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga Murojaatnoma// "Xalq so'zi", 2017 yil 23 dekabr. (Mirziyoev Sh. Address to the members of the Senate of the Oliy Majlis and the Legislative Chamber // "People's word", December 23, 2017.)
8. Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.-T., O'zbekiston, 2010. (Karimov I. The concept of deepening democratic reforms and development of civil society in our country.-T., Uzbekistan, 2010.)
9. "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. QMMB: 06/22/60/0082-son 29.01.2022-y. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026". QMMB: No. 06/22/60/0082 29.01.2022)
11. Sagdullayeva, D. S. (2019). CERTAIN PHILOSOPHICAL ASPECTS OF SOCIETY MODERNIZATION. *Paradigmata poznani*, (1), 20-24.
12. Туленова, Г. Ж., & Сагдуллаева, Д. Ш. (2019). Особенности политического реформирования в Республике Узбекистан. *Социосфера*, (1), 142. (Tulenova, G. Zh., & Sagdullaeva, D. Sh. (2019). Features of political reform in the Republic of Uzbekistan. *Sociosphere*, (1), 142.)